



IJTIMOY TARMOQ YOZISHMALARIDAGI LEKSIK BIRLIKLARDA SHAXS RUHIYATI VA XARAKTER XUSUSIYATLARINING IFODALANISHI.

Rahimqulova Lobar Hamro qizi

Qarshi xalqaro universiteti Filologiya va
Tillarni o'qitish kafedrası o'qituvchisi
lobarlobar102@gmail.com

Choriyeva Muhlis Jumanazar qizi

Muxlisamuxlis60@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15550114>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- May 2025 yil

Ma'qullandi: 28- May 2025 yil

Nashr qilindi: 30- May 2025 yil

KEY WORDS

*Xarakter, ruhiy holar,
temperament, qisqartma, emoji, gif,
profil, kommunikatsiya, psixologik.*

ABSTRACT

Ijtimoiy tarmoq yozishmalaridagi til birliklari shaxsning ruhiyati va xarakter xususiyatlarini ifodalashda juda muhim sanaladi. Yozishmalardagi til birliklari insonlarning qanday fikrlashini, munosabatlarini, his-tuyg'ularni ko'rsatadi va tilshunoslikda bu tahlil zamonaviy va dolzarb sohalaridan biri sanaladi. Ijtimoiy tarmoq yozishmalaridagi til birliklarida ifodalangan shaxslarning ruhiy holatini lingvistik tahlil qilish tilshunoslik va psixologiya sohalarining hamkorligini talab qiladi. Ruhiy holat va temperament atamaları o'xshash tushuncha sifatida qaraladi. Ammo bu ikki atama alohida tushunchalar hisoblanadi. Temperament tug'ma psixologik xususiyat bo'lib, kishilarning umri davomida o'zgarib boradi. Ammo xarakter o'zgarishi natijasida temperament bir muddat o'zgargandek ko'rinishi mumkin. Ruhiy holat esa kishilarda ichki va tashqi omillar ta'sirida ma'lum bir muddat kuzatiladigan psixologik jarayondir.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalaridagi ruhiy holatlarni ifodalovchi til birliklarini aniqlashda so'zlarni lingvistik tahlil qilish, psixologik yondashish hamda qiyoslash metodlaridan foydalanish samarali natija beradi. Ruhiy holat — bu inson hayotiy faoliyatining mumkin bo'lgan usullaridan biri bo'lib, u fiziologik darajada ma'lum energiya xususiyatlari bilan, psixologik darajada esa atrofdagi dunyoni o'ziga xos idrok etishni ta'minlaydigan psixologik filtrlar tizimi bilan ajralib turadi (Shcherbatykh Yu. V., Mosina A. N., 2008). N. D. Levitov [„Левитов Николай Дмитриевич“. *ХРОНОС*. 2017-yil 2-fevral] fikriga ko'ra: *psixik holat* — „muayyan davrdagi psixik faoliyatning voqelikning aks ettirilgan obyekt va hodisalariga, avvalgi holat va shaxs xususiyatlariga bog'liq holda psixik jarayonlarning borishining o'ziga xosligini ko'rsatadigan yaxlit xarakteristikasi [Левитов Н. Д.. О психических состояниях человека. М.: Просвещение, 1964 — 20-bet].

Ijtimoiy tarmoq yozishmalaridagi til birliklari shaxslarning xarakter xususiyatini ham ko'rsatib beruvchi vosita hisoblanadi. Xarakter insonlarning jamiyat bilan aloqasi natijasida kishilarda umri davomida shakllanib, o'zgarib boruvchi jarayon hisoblanadi.

Xarakter (yunoncha *charaktir* – belgi, ajratuvchi sifat, xislat) – ijtimoiy muhitda tarkib topadigan, shaxsning tevarak-atrofdagi voqelikda va o'z-o'ziga munosabatlarida ifodalanadigan, uning muayyan vaziyat va sharoitda namoyon bo'luvchi xatti-harakatlarini belgilab beradigan barqaror, turg'un ruhiy xususiyatlarining majmuasi.

Xarakter xususiyatlarining 4 ta tizimi mavjud:

- 1) jamoaga, guruhga, ayrim insonga nisbatan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik va boshqa);
- 2) mehnat faoliyatiga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga mas'uliyat yoki mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lish va boshqa);
- 3) narsa va ashyolarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar (ozodalik yoki ifloslik, narsalarga ayab yoki ayamadan yondashish va boshqa);
- 4) insonning o'z-o'ziga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi xususiyatlar (izzatnafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, dimog'dorlik, kamtarinlik va boshqa). [<https://oyina.uz/uz/teahause/1158>].

Xarakter bola tug'ilganidan boshlab shakllanadi. Xarakter har bir shaxsning individual xususiyatlari majmuidir. Xarakter shakllanishiga atrof-muhit va genetik omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Shaxs xarakteri shakllanishida temperamentning ta'siri ham sezilarlidir. Temperament xarakterdan farqli ravishda kishilarning tug'ilishi bilan shakllanib, umri davomida o'zgarmaydigan psixologik jarayon hisoblanadi. Gepokrat temperamentning to'rt turini farqlaydi. Gepokrat insonlardagi to'rt suyuqlik: qon, balg'am, qora safro, sariq o'tni insonlarning temperamentini belgilab beruvchi vositalar sifatida izohlaydi.

- Sariq o'tning ustunligi (lotincha chole - "chole" dan) xolerik temperamentning mavjudligini bildiradi. Sariq safro ortiqcha sharbatlarni quritadi.
- Ko'p miqdorda qon (lotincha sanguis - "sanguis" dan) sanguistik temperamentning sababidir. Qon issiqlikni olib yuradi va odamni isitadi.
- Qora safro (lotincha melanos chole - "melanos teshigi" dan) melanxolik temperamentga olib keladi. Qora safroning maqsadi tanadagi namlikni saqlashdir.
- Shilimning ustunligi (lotincha flegma - "balg'am" dan) shaxsning flegmatik rivojlanishidan dalolat beradi. Flegma impulsar va intilishlarni sovutadi, chunki u sovuq sharbatdir. [<https://uz.religionmystic.com/17200861-humoral-theory-of-temperament-the-main-types-of-personality-temperament-according-to-hippocrates>].

Ijtimoiy tarmoq yozishmalaridagi til birliklari shaxsning ruhiyati va xarakter xususiyatlarini ifodalashda juda muhim sanaladi. Yozishmalardagi til birliklari insonlarning qanday fikrlashini, munosabatlarini, his-tuyg'ularni ko'rsatadi va tilshunoslikda bu tahlil zamonaviy va dolzarb sohalaridan biri sanaladi. Quyida, insonlarning ruhiy holati va xarakteri telegram ijtimoiy tarmog'idagi yozishmalarda qanday aks etishini ko'rib chiqamiz:

- **So'z qo'llash:** Ba'zi bir ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari hissiy bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarni qo'llaydi va bu so'zlar shu insonning emotsionalligini, sezuvchanligini ko'rsatadi. Boshqa bir inson aniq va qisqa so'zlardan foydalanadi bu insonlar esa mantiqiylik va aniqlikka moyil bo'ladi. So'zlarni qo'llashda jinsiy farqlilik ham ahamiyatga ega. Ayollar erkaklarga nisbatan his-tuyg'u va emotsialarga beriluvchan bo'lishadi va yozishmalar va profil ma'lumotlariga qarab ayollarning ruhiy holatini aniqlash osonroq kechadi.

Ayollar ko'pincha yumshoqroq, ehtiyotkor so'zlar, qochiriqlar va savolga o'xshash iboralarni ishlatadi. Eraklar esa ko'proq qat'iy va dominant tildan foydalanadi.[Robin Lakoff. Language and Woman's Place. 1975-y].

Ayollarning tildan foydalanishi ko'pincha ularning o'z-o'ziga ishonchi past ekanligini yoki jamiyatdagi kuchsiz mavqesini aks ettirishi mumkin. Bu, o'z navbatida, insonning ruhiy holatiga ta'sir qiladi, chunki kishi o'zini qanday his qilishi va o'zini qanday ko'rsatishi ko'pincha tildagi o'z ifodasi orqali namoyon bo'ladi. [Robin Lakoff. Language and Woman's Place. 1975-y].

- **Qisqartma so'zlar:** Qisqartma so'zlardan asosan dangasalik xarakteriga mansub bo'lgan shaxslar foydalanadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiy yozishmalarda quyidagi qisqartma so'zlardan foydalaniladi.

Qisqartmalar	Izohlari
salom	Assalom-u alaykum
bn	bilan
Tel qil	Telefon qil
insta	instagram
kn	keyin
tg	telegram
ilti	iltimos

- **Profilga joylangan rasm yoki videolar:** Insonlarda ruhiy holat psixologik holati bilan bog'liq bo'lgan o'zgaruvchan jarayondir. Profilga joylanadigan rasm va videolar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining ruhiy holatini ifodalovchi asosiy vosita hisoblanib, ko'pchilik ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining profil suratlari ruhiy holatiga mos ravishda tez-tez o'zgarib turadi.

Ammo kishilarning xarakter xususiyatlari ham muhim rol o'ynaydi. Ba'zi bir insonlar xarakter xususiyatidan kelib chiqib ruhiy holatini to'raligicha aks ettirmasligi ham mumkin. Sababi profilni ruhiyatdan kelib chiqib o'zgartirib turish bachkanalik deb hisoblashadi.

- **Emojilar, giflar va belgilar:** Emojilar orqali kishilar o'z ruhiy holatini tez va oson ifodalab beradi. Yozishmalardagi 😊 😊 kabi emojilar ko'tarinki kayfiyatdagi ruhiy holatni ifodalaydi. 😊 😊 😊 bu emojilar esa ijobiy ruhiy holatdagi insonlar ya'ni xotin-qizlar tomonidan ko'proq qo'llaniladi. Kinoya yoki yumoristik xarakterdagi yozishma sifatida esa 😊 😊 kabi emojilar qo'llaniladi. 😊 😊 bu emojilar esa asabiylik holatini boshdan kechirayotgan foydalanuvchilar tomonidan qo'llaniladi.

Shimoliy Irlandiyalik tilshunos David Crystal ijtimoiy tarmoqlarda shaxsning ruhiyati va xarakter xususiyatlari qanday aks etishini ham o'rganadi. U internet muloqoti insonlar o'zlarini qanday ifoda qilishlariga katta ta'sir ko'rsatadi deb ta'kidlaydi. Masalan, emojilar va qisqartmalar insonning kayfiyati yoki o'z his-tuyg'ularini tez va samarali yetkazishga imkon beradi. Bunday leksik birliklar shaxsning hozirgi hissiy holatini ko'rsatishga yordam beradi[D.Crystal. Til va internet. Cembrij.2021.b-37].

David Crystal ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining ruhiy holat va xarakterini ko'rsatishda foydalanadigan belgilarini quyidagicha izohlaydi.

Jadval 2..2. Tabassumlarga misollar (Sandersondan keyin, 1993)

Asosiy tabassumlar

: -) zavq, hazil va hokazo.

:- (qayg'u, norozilik va hokazo.

;-) ko'z qisish (har qanday ma'noda)

;- (:~-(yig'lash

%-(%-) chalkash

:-o 8-o hayron, hayron

:-] :-[istehzoli

Hazil smileys

[:-) Foydalanuvchi yurish kiygan

8-) Foydalanuvchi ko'zoynak taqqan

B:-) Foydalanuvchi boshiga ko'zoynak taqqan

:-) Foydalanuvchining mo'ylovi bor

:-*) Foydalanuvchi mast

:-[Foydalanuvchi vampir

:-E Foydalanuvchi bucktoothed vampire

:- F Foydalanuvchi-bu bitta tishi etishmayotgan bucktoothed vampir

:-~ Foydalanuvchida sovuq bor

:-@ Foydalanuvchi qichqirmoqda

:-) Foydalanuvchi pank

:- (Haqiqiy panklar tabassum qilmaydi

+:-) Foydalanuvchi xristian diniy idorasini egallaydi

0 :-) Foydalanuvchi yurakdagi farishta [D.Crystal. Til va internet. Cembrij.2021.b-37].

- Post va statuslar. Foydalanuvchilar o'zlarining ruhiy holati va xarakteridan kelib chiqib fikr qoldiradi.

- **Kommunikatsiya Usullari:** Ijtimoiy tarmoqlarda insonlar boshqalar bilan xarakter va ruhiy holatidan kelib chiqib do'stona, rasmiy yoki tanqidiy uslublarda muloqotda bo'lishi mumkin. Do'stona va qo'llab-quvvatlovchi muloqot shaxsning mehribonligi va hurmatini, tanqidiy va keskin muloqot esa ehtimoliy tajribalarni yoki g'azabni ko'rsatadi.

Ijtimoiy tarmoqdagi yozishmalar ko'pincha shaxsiy hayotning faqat bir qismidir va haqiqiy xarakterni to'liq aks ettirmasligi mumkin. Shunday ekan, yozishmalarda uchraydigan leksik birliklarni tahlil qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak. Sababi haqiqiy muloqot jarayonida insonlarning ruhiy kechinmalari va xarakter xususiyatlarini aniqlash osonroq kechadi. Onlayn muloqotda esa hissiy muloqot yetishmaydi yoki kishilar o'z asl shaxsiyatini emas balki o'zlarini hayolot mahsuli bo'lgan individual xususiyatlarga egadek ko'rsatishga harakat qilishadi ya'ni soxtalashtirishadi. Masalan, ba'zi bir insonlar diniy atamalarni ijtimoiy tarmoq yozishmalarida doimiy ravishda qo'llashni odat tusiga aylantirgan bo'ladi. Lekin bu insonlarning diniy ilmi yetishmaydi yoki tamoman amal qilmaydi. Diniy atamalarni esa yozishmalarida soxta qiyofa yaratuvchi niqob sifatida qabul qilgan bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Turkle Alone Together. New York.,BASIC BOOKS. 2011.
2. D.Crystal Til va internet. Cembrij-2021.
3. Robin Lakoff Language and Woman's Place. 1975-y
4. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova Umumiy psixologiya. Toshkent-2021.

5. Shcherbatyx Yu. V., Mosina A. N., 2008

6. <https://uz.religionmystic.com/17200861-humoral-theory-of-temperament-the-main-types-of-personality-temperament-according-to-hippocrates>.

7. <https://oyina.uz/uz/teahause/1158>



**INNOVATIVE
ACADEMY**